MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Developing Strength and Endurance in Wrestlers..... 2526 Shermatov Gulom Qaxxorovich Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition 2532 Shermumamadova Diyorakhon Nurmuhamad kizi Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish..... 2535 Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar 2539 Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimmetriyasini bartaraf etish 2543 To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari 2546 Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 2550 Uzakov Arslon Avazovich Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari 2553 Xolboboyev Shaxruz Shokirovich Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari 2559 Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna Boks texnikasini takomillashtirish usullari..... 2562 Xusanboy Mamatqulov No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv 2566 Yo'ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi O'zbek va rus xalq tez aytilishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari..... 2570 Ayupova Xilola Azamatovna Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским 2574 Касимов Азиз Бердимуратович Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatini tahlili..... 2578 Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari 2581 Amriyeva Dilfuza Ruzievna Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi 2586 Abdusamatov Alisher Sobirovich Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili 2591 Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari 2602 To'rabekov Farxod Sanakulovich Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi 2607 Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations 2610 Gulmira Kamoladdinovna Madirimova Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari..... 2613 Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati..... 2617 Raxmatova Nodira Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari..... 2621 Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish 2625 Nosirova Dilnoza Toir qizi Funksiya grafigini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni 2629 Musurmonova Shahlo G'ulomovna Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ... 2633 Rashidova Sanobar Zokirovna
-------------------------------------	--




Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhraxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari.....	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons in the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам.....	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili.....	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	
O'qituvchilarda stressni boshqarish ko'nikmalarining dars samaradorligiga ta'siri	2687
Nazarova Sitora Maxamatovna	
Improving Media Competence Development in Future Teachers.....	2689
Urinov Rustambek Yoqubjonovich	
Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari: zamonaviy ta'limda kreativ fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishning o'rni	2694
Berdiyorova Nilufar Berdiyori qizi	
Boshlang'ich sinflarda ulush tushunchasini 4K modeli orqali o'rgatish metodikasi	2699
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Abdiqudirova Aziza Shukurboy qizi	
Noto'liq oilalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishi va xulq-atvori.....	2706
Barno Masharipova Erkin qizi, Sabirbaeva Aydana	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2710
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi	
Роль рефлексивных свойств в развитии психологической компетентности.....	2715
Рахманова Дилноза Фармановна	
XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli.....	2718
Rajabova Nodirabegim Komilovna	
PhET veb-platfomasi orqali o'quvchilarning fizika fanidan mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish (Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari misolida).....	2720
Axmedov Yodgorbek Olimjonovich	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirish – mediatahdidlarning oldini oluvchi omil sifatida.....	2724
Ortiqova Nargiza Akramovna	
Talabalarda aksiologik yondashuvga asoslangan tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning falsafiy-pedagogik negizlari	2729
Abdurazzakova Zebiniso Akmalxon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini takomillashtirish	2733
Sanginova Gulnoza Baxodirovna	
Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida raqamli monitoring platformalarini joriy etishning ta'lim sifati va kasbiy rivojlanishga ta'siri	2740
Bisenbaev Islambek Qaypnazarovich	
Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda pedagogik yondashuvlar	2744
Kabilova Sevara Rashid qizi	

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqaruv tamoyillaridan foydalanishni takomillashtirish.....	2748
Rajabova Nargiza Ahmadovna	
Ложь как социально-психологический феномен: генезис и функции в процессе социализации личности.....	2751
С. Ю. Нишанов	
Формирование личностных и профессиональных качеств директоров: педагогическая деятельность дошкольных образовательных организаций, психологические особенности	2756
Мухторова Заррина Султоновна, Бектошева Динора Зохида кизи	
Персональные данные директоров дошкольных образовательных организаций: анализ передового зарубежного опыта формирования профессиональных качеств.....	2759
Мухторова Заррина Султоновна, Амридинова Гуласал Аминжоновна	
Inklyuziv ta'limda zamonaviy tibbiy tashxisning o'rni va ahamiyati.....	2762
Raximov Atanazar Karimovich, Yuldashova Iroda Dilshodovna, Mitalova Nargiza Salibaevna	
Tehnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari.....	2765
Abduraimova Gulnoza Sharif qizi	
Matematika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish	2769
Xolmurzayeva Nigora Abdimurotovna	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish.....	2774
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Harakatlanuvchi robotlarda to'siqlarni aniqlash uchun kalman filtr texnologiyasi	2780
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Raximov Muzaffar Mirzohid o'g'li	
Milliy ertak qahramonlari haykallarini yasash orqali o'quvchilarda badiiy obrazni tahlil qilish metodikasini shakllantirish	2785
Qodirov Bobirjon Botirjonovich	
Boshlang'ich sinflarda o'yin texnologiyalari asosida savod o'rgatish jarayonini takomillashtirish	2790
Husenova Aziza Sharipovna, Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi	
Rus tilidagi harakat natijasi holat fe'llarining leksik-semantik guruhlar tuzilishi	2794
Kurbanova Gulzoda Yunusovna	
Nemis tilidagi somatik frazeologizmlar va ularning kommunikativ funksiyalari.....	2797
Mirzakarimov Maxmudjon Ro'ziboyevich	
Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish metodikasi	2800
Murodov Nodirbek Oybek o'g'li	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o'quv jarayonini loyihalashning nazariy jihatlari.....	2804
Nurullayev Abduhamid Ro'zimboyevich	
Python dasturlash tilida matematik figuralarni chizish metodikasi.....	2809
Rajabova Gulchekhra Salomovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya asosida yondashuvlarni kompetensiyaviy rivojlantirishdagi ahamiyati.....	2814
Sadriiddinova Zulfiya Mirzaliyevna	
Bo'lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish.....	2820
Saidova Barno Narzullayevna, Usmonova Sabina Iloxom qizi	
Boshlang'ich sinflarda etnopedagogik namunalaridan foydalanish usullari	2823
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi, Sultonova Sevinch Doston qizi	
Психологические методы диагностики правонарушающего поведения в подростковом возрасте	2827
Пардаева Умида Мухтар кизи	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish	2831
U. Y. Axmedova, M. M. Ibrohimova	
XX asr boshlarida buxoro hududida ichki migratsiya jarayonlarining sabablari va oqibatlari	2834
Nuriddinov Abrorbek To'liqin o'g'li	
Ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish kompetensiyasi.....	2838
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Saidova Oygul Husenovna	
Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarning imkoniyatlari	2841
Tursunova Gulsora Adahamjon qizi	
Ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning samarali metodik tizimini yaratish imkoniyatlari.....	2844
Olimov Timur Xasanovich, Yuldashev Ta'lant Abdinazarovich	
Методические возможности ИКТ-тестирования в контроле учебных достижений учащихся старших классов (по результатам педагогического эксперимента).....	2848
Уразова Марина Ботировна, Асанова Кямиле Усмановна	



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- METODIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Sanginova Gulnoza Baxodirovna

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0008-0444-7236

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlari hamda ularni pedagogik jarayonga integratsiyalash usullari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, mustaqillik va ijtimoiy hamkorlik kabi shaxsiy hamda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada faoliyatga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va ijtimoiy-madaniy yondashuvlarning metodologik asoslari, ularning amaliy qo'llanilishi hamda bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari mehnat tarbiyasini tizimli va ilmiy-metodik asosda tashkil etish bolalarda amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish hamda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, katta yoshdagi bolalar, mehnat tarbiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik metodika, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the scientific and methodological mechanisms for developing labor education among senior preschool children, as well as methods for integrating them into the pedagogical process. The main objective of the study is to form personal and social competencies in children, such as diligence, responsibility, independence, and social cooperation, and to identify opportunities for improving pedagogical effectiveness in preschool educational institutions. The article outlines the methodological foundations of activity-based, competency-based, and socio-cultural approaches, their practical implementation, and their impact on children's personal development. The findings demonstrate that the systematic and scientifically grounded organization of labor education contributes to strengthening practical skills, enhancing social adaptation, and increasing the overall effectiveness of the pedagogical process.

Key words: preschool education, senior preschool children, labor education, competency-based approach, pedagogical methodology, personal and social development.

Аннотация: В статье проводится научно-теоретический анализ научно-методических механизмов развития трудового воспитания у детей старшего дошкольного возраста, а также способов их интеграции в педагогический процесс. Основной целью исследования является формирование у детей таких личностных и социальных компетенций, как трудолюбие, ответственность, самостоятельность и социальное сотрудничество, а также определение возможностей повышения эффективности педагогического процесса в дошкольных образовательных организациях. В статье раскрываются методологические основы деятельностного, компетентностного и социокультурного подходов, особенности их практического применения и влияние на личностное развитие детей. Результаты исследования показали, что системная и научно-методически обоснованная организация трудового воспитания способствует укреплению практических навыков, развитию социальной адаптации и повышению эффективности педагогического процесса.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети старшего дошкольного возраста, трудовое воспитание, компетентностный подход, педагогическая методика, личностное и социальное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitida maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bolalarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi shaxsiy sifatlarini erta yoshdan shakllantirish masalasi davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbi-

yasini rivojlantirish nafaqat ularning kelgusidagi o'quv faoliyatiga tayyorgarligini ta'minlaydi, balki shaxsning ijtimoiylashuvi va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning mazmuni va sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha so'nggi yillarda keng ko'lamlı normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son¹ qarorida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy, axloqiy va mehnatga oid ko'nikmalarini shakllantirish maktabgacha ta'limning ustuvor vazifalari sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda mehnat tarbiyasi bolalarning shaxsiy faolligi va mustaqilligini rivojlantiruvchi asosiy tarbiyaviy yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish, sodda mehnat topshiriqlarini ongli va mas'uliyat bilan bajarishga o'rgatish, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida ko'rsatilgan. Mazkur dastur talablari maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasini tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etadi.²

Maktabgacha katta yosh davri (5–7 yosh) bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda mehnatga bo'lgan munosabat, mas'uliyat hissi va mustaqil faoliyat ko'nikmalari faol shakllanadi. Psixologik tadqiqotlar ushbu yoshda bolalarda ixtiyoriy diqqat, o'z faoliyatini rejalashtirish, natijani baholash va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatlari rivojlana boshlashini ko'rsatadi. Shu sababli mehnat tarbiyasini aynan ushbu davrda ilmiy-metodik asosda tashkil etish yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi.³

Biroq amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasini tashkil etishda metodik yondashuvlarning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvning to'liq joriy etilmaganligi kuzatilmoqda. Bu esa mehnat tarbiyasining imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur holat maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning samarali ilmiy-metodik mexanizmlarini aniqlash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish va ularning pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, bolalarda mehnatsevarlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish masalasi pedagogika fanida uzoq yillardan buyon muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu masala shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy moslashuv hamda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan uzviy bog'liq bo'lib, pedagogik nazariya va amaliyotda kompleks yondashuvni talab etadi.⁴

Sharq mutafakkirlari asarlarida mehnat tarbiyasi shaxs kamolotining muhim omili sifatida talqin qilingan. Xususan, Alisher Navoiy o'z asarlarida mehnatsevarlik, mas'uliyat va halollikni inson kamolotining asosiy mezonlari sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, shaxs tarbiyasi, avvalo, kundalik faoliyat va mehnat orqali shakllanadi, bu esa bolalik davridan boshlab izchil yo'lga qo'yilishi lozim (Navoiy, 2016). Ushbu g'oyalar bugungi kunda ham maktabgacha ta'lim tizimida mehnat tarbiyasining axloqiy-falsafiy asosini tashkil etadi.⁵

G'arb pedagogik tafakkurida ham mehnat tarbiyasi shaxs rivojlanishining muhim komponenti sifatida baholanadi. J. Dewey ta'limni faoliyat bilan bog'lash g'oyasini ilgari surib, bolaning real amaliy faoliyat jarayonida ijtimoiy tajriba orttirishini ta'kidlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, mehnat faoliyati bolada mustaqil fikrlash, mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi (Dewey, 1997). Ushbu yondashuv maktabgacha ta'limda mehnat tarbiyasini faqat ko'nikma sifatida emas, balki ijtimoiy tajriba sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Psixologik tadqiqotlarda maktabgacha katta yosh davri bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida sezgir bosqich sifatida e'tirof etiladi. L. S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola shaxsining rivoji ijtimoiy faoliyat va kattalar bilan hamkorlik jarayonida amalga oshadi. Mehnat faoliyati esa ushbu hamkorlikning samarali shakllaridan biri bo'lib, bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytirishga xizmat qiladi (Vygotsky, 1978). Mazkur nazariya mehnat tarbiyasini ilmiy-metodik asosda tashkil etish zaruratini asoslaydi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4327235>

2 "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr (2022) Toshkent.

3 Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

4 Navoiy, A. (2016). Mahbub ul-qulub. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

5 Dewey, J. (1997). *Experience and education*. New York, NY: Touchstone



D. B. Elkonin maktabgacha yosh davrida faoliyat turlarining bosqichma-bosqich o'zgarishini tahlil qilib, aynan 5–7 yosh oralig'ida mehnat elementlari o'yin faoliyatidan ajralib, nisbatan mustaqil faoliyat shakliga aylanishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ushbu davrda bolalarda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishning muhim sharti hisoblanadi (Elkonin, 2016).⁶

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda mehnat tarbiyasi kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda. I. P. Podlasy mehnat tarbiyasini shaxsning ijtimoiy, kommunikativ va faoliyatga oid kompetensiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida talqin qiladi. Uning tadqiqotlarida mehnat faoliyati orqali bolaning mas'uliyat hissi, intizomi va jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan (Podlasy, 2017).⁷

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida maktabgacha ta'limda mehnat tarbiyasini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish masalasi alohida o'rin egallaydi. D. Karimova maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini tashkil etishda milliy urf-odatlar, oilaviy mehnat an'analar va ijtimoiy muhit omillarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi (Karimova, 2021). Tadqiqotchining fikricha, mehnat tarbiyasining samaradorligi uning bolalar hayotiy tajribasi bilan bog'liqligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.⁸

Shuningdek, Nizomova Sh.Sh. tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda maktabgacha ta'lim muassalarida mehnat tarbiyasini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Muallif interaktiv metodlar, loyiha faoliyati va reflektiv yondashuvlar bolalarda mehnatsevarlik hamda mustaqillikni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini qayd etadi.⁹

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda mehnat tarbiyasining nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan ishlashda ilmiy-metodik mexanizmlarni tizimli ravishda takomillashtirish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, mehnat tarbiyasini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish va uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash bo'yicha izlanishlar yetarli darajada emas.

Shu bois, ushbu tadqiqot mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning samarali ilmiy-metodik mexanizmlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish zaruratidan kelib chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini takomillashtirish jarayonini tizimli ilmiy tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogik metodologiyaning asosiy konseptual yondashuvlariga tayangan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda ijtimoiy-madaniy yondashuvlarning integratsiyasi metodologik asos sifatida belgilandi.

Tadqiqotning metodologik poydevori sifatida bolaning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi tanlandi. Ushbu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolani faqat pedagogik ta'sir obyekti sifatida emas, balki mehnat faoliyati jarayonida ijtimoiy tajribani faol o'zlashtiruvchi, mustaqil harakat qiluvchi va o'z imkoniyatlarini namoyon etuvchi subyekt sifatida talqin etadi. Ayniqsa, katta yoshdagi maktabgacha bolalarda mehnat faoliyatining tarbiyaviy salohiyati yuqori ekanligi mazkur yondashuvning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv maktabgacha ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasini tashkil etishning yetakchi metodologik yo'nalishi sifatida qaraldi. Ushbu yondashuv bolalarda elementar mehnat ko'nikmalari, ijtimoiy mas'uliyat, mustaqillik va hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mehnat tarbiyasi mazkur kompetensiyalarning mazmuniy asosi sifatida bolaning kundalik faoliyati, o'yin va amaliy mashg'ulotlar bilan uzviy bog'liq holda talqin etildi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv doirasida mehnat tarbiyasi bolalarning real faoliyati orqali tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatida o'rganildi. Ushbu yondashuv mehnat faoliyatini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etish, amaliy harakatlar orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtirish mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv esa mehnat tarbiyasini pedagogik hodisa sifatida jamiyatda shakllangan qadriyatlar, madaniy an'analar va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilishga xizmat qildi. Ushbu yondashuv doirasida maktabgacha ta'lim muassasasida mehnat tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy muhit va pedagogik hamkorlik masalalari yoritildi.

6 Elkonin, D. B. (2016). Psixologiya igry. Moskva: Akademiya.

7 Podlasy, I. P. (2017). Pedagogika: teoriya i praktika. Moskva: Yurayt.

8 Saidov Jur'at Sodirovich (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-1046-1050

9 Nizomova Sh.Sh. – Buxoro davlat universiteti Sport faoliyati va pedagogik ta'lim fakulteti, Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD); Istamova Marjona Sulton qizi – 14-2-MTK-20 guruh talabasi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, ilmiy taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil metodi orqali mehnat tarbiyasi, maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati, pedagogik mexanizm va metodik ta'minot tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berildi hamda ularning pedagogika fanidagi talqinlari aniqlashtirildi.

Ilmiy taqqoslash metodi yordamida milliy va xorijiy pedagogik tajribalarda mehnat tarbiyasini tashkil etish yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida mehnat tarbiyasining shakl va metodlari solishtirilib, ularning samaradorligini belgilovchi omillar aniqlashtirildi.

Tizimlashtirish metodi asosida mehnat tarbiyasiga oid ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va metodik tavsiyalar mantiqiy tizimga solindi. Ushbu metod mehnat tarbiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik mexanizmlarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Umumlashtirish metodi orqali tadqiqot davomida olingan nazariy xulosalar yagona ilmiy pozitsiya asosida birlashtirildi hamda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning umumiy qonuniyatlarini belgilandi. Pedagogik modellashtirish metodi yordamida mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini aks ettiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu model mehnat faoliyati, pedagogik shart-sharoitlar va bolaning rivojlanish natijalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalashga xizmat qildi.

Mazkur metodologiya maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda yoritish, aniqlangan natijalarni tizimli talqin etish hamda ularning amaliy ahamiyatini asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirish jarayonida ilmiy-metodik mexanizmlarni tizimli qo'llash samaradorligini yaqqol namoyon etdi. O'tkazilgan nazariy tahlil va metodik modellashtirish asosida mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlashtirildi hamda ularning bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojiga ta'siri asoslab berildi.

Tadqiqot davomida mehnat tarbiyasini rivojlantirishning asosiy ilmiy-metodik mexanizmlari sifatida faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, o'yin-mehnat integratsiyasi, kundalik amaliy vazifalarni tizimli tashkil etish hamda pedagogik rahbarlikning izchil modeli belgilandi. Ushbu mexanizmlarning uyg'un qo'llanilishi bolalarda mehnat faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mehnat tarbiyasi jarayonida kompetensiyaviy yondashuvga asoslanish bolalarda mustaqillik, mas'uliyat, tashabbuskorlik va hamkorlik kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kundalik hayot bilan bog'langan oddiy mehnat faoliyatlari bolalarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishi kuzatildi.

Eksperimental natijalar tahlili

Shakllantiruvchi bosqich yakunida olingan natijalar tajriba va nazorat guruhlari kesimida solishtirildi. Ilmiy-metodik mexanizmlar tizimli qo'llanilgan tajriba guruhida mehnat tarbiyasining barcha mezonlari bo'yicha ijobiy dinamik o'zgarishlar kuzatildi (1-jadval).

1-jadval: Mehnat tarbiyasining rivojlanish darajalari bo'yicha natijalar (%)

Daraja	Tajriba guruhi (boshlang'ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Past	42%	15%	38%
O'rta	39%	47%	41%
Yuqori	19%	38%	21%

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshgan, past darajadagi ko'rsatkichlar esa kamaygan. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar nisbatan sust xarakterga ega bo'ldi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, mehnat tarbiyasini faqat alohida mashg'ulotlar doirasida emas, balki maktabgacha ta'lim muassasasining butun pedagogik jarayoniga integratsiyalash orqali tashkil etish uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv bolalarda mehnat faoliyatining tarbiyaviy ahamiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Ilmiy-metodik mexanizmlarni takomillashtirish natijasida mehnat tarbiyasining quyidagi tarkibiy natijalari aniqlandi:

- bolalarda mehnat faoliyatiga bo'lgan barqaror qiziqishning shakllanishi;
- topshiriqlarni bajarishda mas'uliyatli munosabatning rivojlanishi;



- jamoada ishlash va o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmalarining mustahkamlanishi;
- mehnat natijasini baholash va undan qoniqish hosil qilish qobiliyatining ortishi.



1-rasm: O'zbekiston va xorijiy tajribada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirish mexanizmlarining qiyosiy samaradorligi

Qiyosiy natijalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ta'lim tizimlarida mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida bolalarda mehnat faoliyatiga qiziqish, mustaqil topshiriqlarni bajarish, hamkorlikda ishlash, mas'uliyatni his etish hamda mehnat natijasini anglash kabi ko'rsatkichlar nisbatan yuqori darajada namoyon bo'lmoqda. Bu holat mazkur tizimlarda mehnat tarbiyasining erta yoshdan boshlab tizimli, uzluksiz va faoliyatga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston maktabgacha ta'lim muassasalarida ham mehnat tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda ilmiy asoslangan metodik mexanizmlarni joriy etish natijasida bolalarda mas'uliyatni his etish va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabat shakllanayotgani aniqlanmoqda. Biroq qiyosiy tahlil natijalari mehnat tarbiyasining metodik ta'minotini yanada takomillashtirish, o'yin va amaliy faoliyat integratsiyasini kuchaytirish hamda pedagogik rahbarlikni tizimli yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirish ilmiy asoslangan, metodik jihatdan puxta rejalashtirilgan va tizimli tashkil etilganda yuqori pedagogik samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarining pedagogik samaradorligini tasdiqladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, o'yin-mehnat integratsiyasi va kundalik amaliy vazifalarni tizimli tashkil etish bolalarda mehnat-sevarlik, mas'uliyat, mustaqillik va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda sezilarli natijalar beradi. Bu natija nafaqat metodik yondashuvlarning mazmuni va samaradorligi bilan, balki pedagogik rahbarlik va tarbiyaviy muhitning sifatli tashkil etilishi bilan ham izohlanadi.

Eksperimental tadqiqot davomida mehnat tarbiyasini rivojlantirish bo'yicha aniqlangan yuqori darajalar – mustaqillik (38%), mas'uliyat (47%) va ijtimoiy hamkorlik (38%) – zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalar bilan uyg'un ekanligi kuzatildi. Xususan, L. S. Vygotskiy (1978) madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bolalar shaxsining ijtimoiy faoliyat va kattalar bilan hamkorlik jarayonida shakllanishini ta'kidlagan bo'lsa, D. B. Elkonin (2016) maktabgacha yoshda faoliyat turlarining bosqichma-bosqich o'zgarishi va mustaqil mehnat ko'nikmalarining rivojlanishini alohida qayd etadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi.

Kuzatuv va tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, mehnat tarbiyasini faqat alohida mashg'ulotlar bilan cheklash uning samaradorligini pasaytiradi. Aksincha, maktabgacha ta'lim muassasasining butun pedagogik jarayoniga integratsiyalashgan mehnat tarbiyasi bolalarda ijobiy munosabat, amaliy ko'nikmalar va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, metodik yondashuvlarni qo'llash orqali bolalarda topshiriqlarni bajarishda mas'uliyatni his etish va mehnat natijasini baholash ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilangan.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, xorijiy ta'lim tizimlarida mehnat tarbiyasi tizimli, uzluksiz va faoliyatga yo'naltirilgan shaklda amalga oshiriladi, bu esa bolalarda mustaqillik, hamkorlik va mehnatsevarlik ko'rsatkichlarini

yuqori darajada rivojlantiradi. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ham ijobiy tendensiyalar kuzatilsa-da, metodik mexanizmlarni takomillashtirish, o'yin va amaliy faoliyat integratsiyasini kuchaytirish hamda pedagogik rahbarlikni tizimli yo'lga qo'yish zarurati mavjud.

Shuni ta'kidlash mumkin, mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning strategik vositasi hisoblanadi. Shu bois, tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda, mehnat tarbiyasini tashkil etish metodikasi va ta'lim dasturlarini takomillashtirishda empirik baza sifatida foydalanilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini tizimli joriy etish pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, o'yin-mehnat integratsiyasi, kundalik amaliy vazifalarni tizimli tashkil etish hamda pedagogik rahbarlikning izchil modeli bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, mas'uliyat va ijtimoiy hamkorlik kabi shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni samarali shakllantiradi.

Shuningdek, tajriba va nazorat guruhlarini natijalari o'zaro solishtirilganda, ilmiy-metodik mexanizmlarni tizimli qo'llash tajriba guruhida yuqori darajadagi ko'rsatkichlarning oshishiga va past darajadagi ko'rsatkichlarning kamayishiga olib kelgani aniqlandi. Bu holat mehnat tarbiyasini maktabgacha ta'lim muassasasining butun pedagogik jarayoniga integratsiyalashning pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Biroq ayrim yo'nalishlarda, xususan, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, amaliy faoliyat mazmunini boyitish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishda qo'shimcha metodik yordam hamda treninglarga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalari va pedagoglar uchun tizimli hamda izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Takliflar:

1. Pedagoglarning shaxsiy va professional kompetensiyalarini rivojlantirish – tarbiyachilar uchun mehnat tarbiyasi, pedagogik madaniyat va ijtimoiy kompetensiyalarni uyg'unlashtirgan treninglar, seminarlar hamda master-klasslarni tashkil etish.
2. Maktabgacha ta'lim dasturlarini boyitish – o'quv mazmuniga mehnat tarbiyasini rivojlantirishga oid amaliy va nazariy elementlarni tizimli integratsiyalash, shuningdek, o'yin va amaliy mashg'ulotlar orqali bolalarda mustaqillik va mas'uliyatni shakllantirish.
3. Amaliy faoliyatni mustahkamlash – tarbiyalanuvchilarni amaliy faoliyat jarayonida mehnat tarbiyasi asosida kompetensiyalarni qo'llashga yo'naltirish, jamoaviy tadbirlar va oilaviy hamkorlikni rivojlantirish.
4. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish – yangi pedagogik loyihalar, didaktik materiallar va metodik vositalarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish hamda amaliyotda qo'llash.
5. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish – bolalarning mehnat tarbiyasini oilaviy kontekstda qo'llab-quvvatlash, ota-onalarni pedagogik jarayonga faol jalb etish orqali bolalarning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish.
6. Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish – mehnat tarbiyasining samaradorligini muntazam kuzatish, bolalarning kompetensiyalarini baholash, natijalarni tahlil qilish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.
7. Tarbiyaviy muhitni boyitish va tizimli qo'llab-quvvatlash – maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat faoliyatini rag'batlantiruvchi pedagogik muhitni yaratish, zarur resurs va uskunalar bilan ta'minlash, tarbiyachilar o'rtasida metodik tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini tizimli joriy etish bolalarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, mustaqillik va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning strategik vositasi hisoblanadi. Shu bois, yuqorida keltirilgan takliflarni izchil amalga oshirish maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, pedagogik amaliyotni modernizatsiya qilish hamda bolalarda ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishni samarali ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (PQ-4312-son qaror).
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. (2022). Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. Toshkent.
3. Dewey, J. (1997). Experience and Education. New York: Macmillan.
4. Elkonin, D. B. (2016). Psixologiya razvitiya rebenka doshkol'nogo vozrasta. Moskva: Prosveshchenie.



5. Saidov, Jur'at Sodirovich. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(9), 1046–1050. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-1046-1050.
6. Nizomova, Sh. Sh. Buxoro davlat universiteti, Sport faoliyati va pedagogik ta'lim fakulteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); Istamova, Marjona Sulton qizi – 14-2-MTK-20 guruh talabasi.
7. Navoiy, A. (2016). Xamsa. Toshkent: Sharq.
8. Podlasy, I. P. (2017). *Pedagogika truda i razvitie kompetentsiy*. Moskva: Akademiya.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.